

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**APREL, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Valijonova Shaxzoda*

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN  
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH ..... 6-9

*Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon*

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK  
MOSLASHTIRISH ALGORITMI ..... 10-15

*Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza*

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA  
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA  
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI ..... 16-19

### IQTISODIYOT FANLARI

*G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon*

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA  
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI ..... 20-24

### FALSAFA FANLARI

*Парниева Айгуль*

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО  
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И  
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ ..... 25-30

### FILOLOGIYA FANLARI

*Tursunova Farangiz*

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI  
JIHATLARI ..... 31-33

*Jo'rayeva Nozimaxon*

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK  
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK ..... 34-38

*Inatova Jasmina*

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI ..... 39-42

*Mavjudboyeva Mardona*

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI ..... 43-47

*Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma*

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY  
KONTEKSTDA ..... 48-50

*Xamidova Go'zal*

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI ..... 51-53

*Adasheva Durdona*

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI ..... 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA) .....	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY .....	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE .....	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI .....	72-77
<b>YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS .....	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR .....	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI .....	91-93
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI .....	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR .....	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR .....	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI .....	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ .....	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА .....	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING .....	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS .....	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING .....	144-149

## TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)

**Erkinov Ma'murjon Muxriddin o'g'li**

Namagan davlat texnika universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarixiy roman janrining nazariy-estetik asoslari qiyosiy planda tadqiq etiladi. Ingliz adabiyotshunosligidagi G. Lukach va H. Vayt kabi olimlarning konsepsiyalari hamda o'zbek adabiyotidagi A. Qodiriy va P. Qodirov asarlari misolida tarixiylik va badiiylik muvozanati tahlil qilingan. Maqolada tarixiy haqiqatni badiiy obrazga ko'chirish mexanizmlari, tasvir vositalarining (sinekdoxa, kinoya) roli va "tarixiy masofa" tushunchasining ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarixiy roman, tarixiylik, badiiy haqiqat, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, Abdulla Qodiriy, Charlz Dikens, narrativ, mimesis, ijtimoiy ong.

---

## HISTORICAL NOVEL: A COMPARATIVE-THEORETICAL ANALYSIS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LITERATURE)

**Erkinov Ma'murjon Mukhriddin ugli**

3rd year basic doctoral student of Namagan State Technical University

**Annotation.** This article explores the theoretical and aesthetic foundations of the historical novel genre from a comparative perspective. Drawing on the concepts of scholars such as G. Lukács and H. White in English literary studies, and the works of A. Qodiriy and P. Qodirov in Uzbek literature, the balance between historicity and artistry is analyzed. The article highlights the mechanisms of transforming historical truth into artistic images, the role of figurative devices (synecdoche, irony), and the significance of the concept of "historical distance."

**Keywords:** historical novel, historicity, artistic truth, English literature, Uzbek literature, Abdulla Qodiriy, Charles Dickens, narrative, mimesis, social consciousness.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n13>

### KIRISH

Adabiyot insoniyat tarixini, ma'naviy tajribasini va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Har bir xalqning adabiy merosida uning o'tmishi, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlari o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan tarixiy asarlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlaydi, balki ularni badiiy tafakkur asosida qayta talqin etadi. Tarixiy asarlarda real voqelik va muallif tasavvuri uyg'unlashib, o'tmish davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy manzarasi yaratiladi. Tarixiy adabiyot nafaqat o'tmish voqealarini tiklaydi, balki o'sha davrning *ijtimoiy ruhiyatini* badiiy bo'yoqlarda jonlantiradi. Tarixchi uchun raqamlar va xronologiya birlamchi bo'lsa, yozuvchi uchun o'sha davr kishisining ichki dunyosi, dardi va orzu-armonlari muhimroqdir. Shu ma'noda, badiiy asar quruq faktlarga "jon bag'ishlovchi" vosita vazifasini o'taydi. Shuningdek, tarixiy asarlar har doim *bugungi kun bilan muloqotda* bo'ladi. Muallif o'tmish mavzusiga qo'l urar ekan, zamonamizning dolzarb muammolariga, insoniy qadriyatlarga yoki milliy o'zlikni anglash masalalariga javob izlaydi. Bu esa kitobxonda nafaqat o'tmishga nisbatan hurmat, balki bugungi kun uchun ham xulosa chiqarish, tarixiy xatolardan dars olish ko'nikmasini shakllantiradi. Yana bir muhim jihat shundaki, tarixiy asardagi *badiiy to'qima va tarixiy haqiqat uyg'unligi* asarning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Yozuvchi tarixiy hujjatlardagi bo'shliqlarni o'z tasavvuri bilan

to'ldirar ekan, xalqning milliy qahramonlari siyomosini yanada yaqinroq va hayotiyroq tasvirlashga erishadi. Bu esa yosh avlod qalbida vatanparvarlik va ajdodlar merosiga sodiqlik tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi. Muxtasar qilib aytganda, tarixiy adabiyot – bu millatning kechagi kuni orqali bugunini tushunishiga va kelajagini qurishiga yordam beruvchi ma'naviy ko'prikdir. [1; B.57.].

Ingliz va o'zbek adabiyotida tarixiy asarlarning nazariy jihatdan o'rganilishi ushbu janrning shakllanishi, rivojlanishi va badiiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tarixiy asar tushunchasi doirasida tarixiylik va badiiylik o'rtasidagi muvozanat muhim o'rin tutadi. Ya'ni, muallif tarixiy faktlarga tayangan holda, ularni badiiy obrazlar va syujet orqali talqin qiladi. Natijada tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat o'zaro uyg'unlashadi. [2; B.87.].

Ingliz adabiyotida tarixiy roman nazariyasi nisbatan mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, bu jarayonda Volter Skot muhim rol o'ynaydi. U tarixiy roman janriga asos solib, tarixiy voqealarni badiiy syujet bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab bergan. Keyinchalik Jorj Lukas tarixiy roman mohiyatini ijtimoiy jarayonlar bilan bog'lab tushuntirib, tarixiylikni jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqada ko'radi. Zamonaviy nazariy yondashuvlarda esa Hayden Vayt tarixni narrativ sifatida talqin qilib, tarixiy matnning ham muayyan badiiy konstruktsiya ekanligini ta'kidlaydi. Ingliz adabiyotida tarixiy asarlar ko'proq realizmga asoslanib, tarixiy aniqlik va ijtimoiy muhitni keng yoritishga intiladi.

O'zbek adabiyotida tarixiy asarlarning shakllanishi va nazariy o'rganilishi milliy uyg'unlash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yo'nalishda Abdulla Qodiriy muhim o'rin tutib, tarixiy roman janrini milliy ruh va ijtimoiy muammolar bilan boyitdi. Oybek asarlarida tarixiy shaxs obrazi va davr muhitining uyg'unligi chuqur badiiy tahlil asosida yoritiladi. Pirimqul Qodirov esa tarixiy-biografik yo'nalishda ijod qilib, tarixiy shaxslar orqali davr ruhini ochib beradi. O'zbek tarixiy asarlarida milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya va tarixiy xotirani tiklash g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. [3; B.46.].

Har ikki adabiyotda tarixiy asarlarning nazariy talqini o'xshash jihatlarga ega bo'lsa-da, ularning yondashuvlarida muayyan farqlar mavjud. Ingliz adabiyotida tarixiylik ilmiylik va obyektivlikka yaqin talqin qilinsa, o'zbek adabiyotida tarixiy voqelik milliy ruh va tarbiyaviy maqsadlar bilan boyitiladi. Ingliz tarixiy romanlarida ijtimoiy qatlamlar va tarixiy jarayonlar keng tasvirlansa, o'zbek tarixiy asarlarida qahramon obrazi va uning ma'naviy olami markaziy o'rin egallaydi. [4; B.92.].

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ingliz va o'zbek tarixiy asarlarini o'rganishda yangi metodologik yondashuvlar qo'llanilmoqda. Xususan, intertekstual tahlil tarixiy matnlarning boshqa matnlar bilan aloqasini ochib bersa, diskursiv yondashuv tarixiy haqiqatning qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Postmodern qarashlar esa tarixiy voqelikning nisbiyligi va ko'p talqinliligini ilgari suradi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tarixiy asarlarining nazariy jihatdan o'rganilishi tarix va badiiy tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatni yoritishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat adabiy jarayonni chuqur anglash, balki har bir xalqning tarixiy ongini va madaniy merosini tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. [5; B.24.].

Ingliz va o'zbek adabiyotshunosligida tarixiy roman janri badiiy tafakkur, milliy xotira va ijtimoiy ongning shakllanishida alohida o'rin egallaydi. Tarixiy asar voqealarni "o'tmishda bo'lib o'tgan hodisa" sifatida qayta hikoya qilish bilangina cheklanmaydi; u muayyan davr ruhiyatini, ijtimoiy munosabatlar tizimini, axloqiy-me'yoriy qarashlarni va siyosiy

tasavvurlarni badiiy til orqali model qiladi. Shu ma'noda tarixiy roman estetik va gnoseologik jihatdan ikki yo'nalishni birlashtiradi: bir tomondan, tarixiy haqiqatning badiiy rekonstruksiya, ikkinchi tomondan esa o'quvchini zamonaviy muammolar haqida o'ylashga undaydigan ramziy-majoziy qatlam. Adabiyot nazariyasida bunday ikki qatlamlilik "mimesis" va "interpretatsiya" o'rtasidagi dialektik birlik sifatida izohlanadi; badiiy matn tarixni bevosita ko'chirib bermaydi, balki uni muallif nuqtayi nazari, janr qoidalari hamda poetik vositalar orqali ma'nolantiradi. Ayniqsa, sinekdoxa, kinoya va o'xshatish kabi tasvir vositalarining tarixiy roman poetikasida faol ishlatilishi tasvirni ixchamlashtirish, ijtimoiy sinflar qarama-qarshiligini umumlashtirish, muallif bahosini yashirin yoki ochiq shaklda berish imkonini kuchaytiradi. [6; B.97].

Tarixiy roman nazariyasida birinchi muhim masala "tarixiylik" tushunchasining o'zi qanday belgilanishidir. Lukács tarixiy roman mohiyatini shaxsiy taqdirlar bilan tarixiy jarayonlarning uzviy bog'liqligida ko'radi: qahramonlar "tarixni harakatga keltiruvchi" ijtimoiy kuchlar bilan aloqada ochiladi, tarixiy fon esa dekoratsiya emas, balki xarakter va konfliktlarning manbai sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv, xususan, Dikens romaniga tatbiq etilganda, "inqilob" individual hayotlarga qanday kirib borishi, omma psixologiyasi qanday ishlashi, sinfiy adovat va adolat istagi qanday qilib zo'ravonlikni oqlovchi mexanizmga aylanishi masalalarini markazga olib chiqadi. Qodiriy romanini nazariy o'qishda ham tarixiylik shunchaki davr kiyimlari, toponimlar yoki tarixiy shaxslar bilan cheklanmasligi, balki o'sha davrning ijtimoiy ong shakllari, ma'naviy me'yorlari, "eski" va "yangi" dunyoqarashlar to'qnashuvi orqali ro'yobga chiqishi ta'kidlanadi. Demak, tarixiy roman nazariy jihatdan "tarixiy faktlar" yig'indisi emas, balki "tarixiy tajriba"ni badiiy idrok etish shaklidir.

Tarixchi faktlarni hujjatli dalillar bilan asoslashga intilsa, yozuvchi "haqiqat"ni badiiy ishonarlilik, psixologik motivatsiya va estetik yaxlitlik mezonlari asosida quradi. Vayt tarixiy narrativning o'zi ham ma'lum ma'noda "hikoyalashtirish" (emplotment) jarayoniga tayanganini, tarixiy matn ham voqelikni voqealar tizimi sifatida tashkil etishda badiiy usullarga yaqinlashishini ko'rsatadi. Bu qarash tarixiy roman uchun ayniqsa dolzarb: romannavis tarixiy materialni tanlaydi, kompozitsiyaga joylaydi, sabab-oqibat aloqalarini badiiy mantiq bo'yicha tartiblaydi, "tipik" vaziyatlar va obrazlar yaratadi. Dikensning Parij va London haqidagi ikki qutbli kompozitsiyasi, ramziy parallelizmlar va takroriy motivlar (masalan, "qayta tirilish" g'oyasi) tarixiy voqelikni ma'nolantirishning badiiy mexanizmlaridan biridir. Qodiriyda esa mahalliy ijtimoiy muhitni detallashtirish, nutqiy portretlar, urf-odat va maishiy manzaralar orqali davrning "ichki tarixi" ochiladi; bu "ichki tarix" ko'pincha siyosiy xronikadan ko'ra ko'proq badiiy haqiqatga xizmat qiladi.

Badiiy tasvir vositalari bo'yicha mumtoz yondashuvlarda sinekdoxa butun va qism munosabatiga asoslangan ma'no ko'chishi, kinoya esa aytilgan ma'no bilan nazarda tutilgan ma'no o'rtasidagi ziddlik orqali baholash yoki tanqidni ifodalash, o'xshatish esa ikki obyekt yoki hodisa o'rtasidagi umumiy belgi asosida tasviriy ko'priklar yaratish vositasi sifatida izohlanadi. Tarixiy roman ana shu vositalar orqali murakkab ijtimoiy jarayonlarni "ko'rinadigan" qiladi: sinekdoxa omma, sinf yoki institutni bitta detal yoki obraz orqali ifodalab, tarixiy dinamikaning ichki mexanizmini ixchamlashtiradi; kinoya rasmiy mafkura yoki "muqaddas" deb e'tirof etilgan qadriyatlarining ziddiyatli tomonlarini fosh qiladi; o'xshatish esa ijtimoiy muhitning ruhiy holatini, kollektiv qo'rquv yoki umidni obrazli ravishda konkretlashtiradi. Burke

nazariyasida adabiy troplar “ramziy harakat” sifatida talqin qilinib, ular orqali jamiyat o'zini tushuntirish va oqlash strategiyalarini ham namoyon etishi qayd etiladi. Bu fikr, ayniqsa, inqilobiy zo'ravonlik tasvirlangan Dikens romanida ham, mustamlaka sharoitidagi ma'naviy ixtiloflar aks etgan Qodiriy romanida ham muhim: badiiy tasvir vositalari nafaqat bezak, balki tarixiy ongning badiiy modeli hisoblanadi.

Tarixiy romanda haqiqatga erishish uchun yozuvchi maxsus poetik vositalardan foydalanadi: **Sinekdoxa**: Yozuvchi butun bir davrning inqirozini bitta oila yoki bitta qahramon taqdiri orqali (masalan, Qumush yoki Ataboy fojiasi) ko'rsatib beradi. **Kinoya (Ironiya)**: Bu vosita orqali muallif eski tuzumning chirigan tomonlarini yoki inqilobiy zo'ravonlikning mantiqsizligini fosh etadi (masalan, Dikensning Parij inqilobi tasviridagi kinoyalari).

**Tarixiy masofa**: Muallif va tasvirlanayotgan davr orasidagi vaqt (masalan, Dikens inqilobdan 70 yil keyin yozgan) yozuvchiga voqealarni xolis va umumlashtiruvchi nuqtayi nazardan baholash imkonini beradi.

Xususiyat	Ingliz tarixiy romani	O'zbek tarixiy romani
Asosiy urg'u	Realizm, ijtimoiy sinflar to'qnashuvi, obyektivlik.	Milliy ruh, ma'naviy tarbiya, tarixiy xotirani tiklash.
Qahramon	Ijtimoiy kuchlarning mahsuli bo'lgan tipik obraz.	Ma'naviy yetuklikka intiluvchi, millat timsoli bo'lgan siymo.
Maqsad	Tarixiy jarayonning mexanizmini tushunish.	Milliy o'zlikni anglash va o'tmish xatolaridan saboq olish.

Tarixiy roman janrining shakllanishida “tarixiy masofa” kategoriyasi ham nazariy jihatdan ahamiyatli. Muallif tasvirlayotgan davr bilan uning yashayotgan davri o'rtasidagi masofa estetik tanlovlarga ta'sir ko'rsatadi: masofa katta bo'lsa, umumlashtirish va tipizatsiya kuchayishi, masofa kichik bo'lsa, muallifning emotsional bahosi va aktual polemikasi yaqqolroq ko'rinishi mumkin. Dikens inqilob davridan taxminan 70 yil keyin yozadi; u ingliz jamiyatidagi sinfiy tengsizlik, sud tizimi, qamoqxona va ommaviy jazolash madaniyatini ham inqilob manzaralari orqali bilvosita muhokama qiladi. Qodiriy esa Turkistonning ijtimoiy hayoti va ma'naviy muammolarini “tarixiy” libosda ko'rsatarkan, aslida zamondosh o'quvchini ma'rifat, adolat va yangilanish g'oyalari atrofida o'ylashga undaydi; buni o'zbek adabiyotshunosligida Qodiriyning tarixiylik orqali zamonaviylikni ochish mahorati sifatida talqin qilishadi. Shunday qilib, tarixiy roman nazariyasida tarixiy masofa “neytrallik”ni emas, balki muallif pozitsiyasining murakkab, ko'p qatlamli shaklda namoyon bo'lishini bildiradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek adabiyotida tarixiy roman janri turlicha shakllangan bo'lsa-da, ularning maqsadi mushtarak: insoniyatning tarixiy tajribasini badiiy haqiqatga aylantirish. Tarixiy roman – bu shunchaki o'tmish haqidagi hikoya emas, balki muallifning bugungi kun muammolariga tarix ko'zgusi orqali qarashidir. Bu janr kitobxonda

vatanparvarlik, tarixiy xotira va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Lukács, G. The Historical Novel. London: Merlin Press, 1962.
2. White, H. Metahistory: The Historical Imagination in Nineteenth-Century Europe. Baltimore, 1973.
3. Mirvaliyev, S. O'zbek adabiyoti tarixi: XX asr. Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. Qodiriy, A. Mehrobdan chayon. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2017.
5. Karimov, N. Abdulla Qodiriy: hayoti va ijodi. Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
6. Burke, K. A Grammar of Motives. Berkeley: University of California Press, 1969.
7. Isanova, Feruza (2019) METAPHORICAL TRANSFERENCE IN ENGLISH SLANG. ИНТЕРНАУКА, 42 (124). pp. 49-50. ISSN 2542-0348. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2089>.
8. Isanova, Feruza (2021) FEATURES OF TRANSLATION IN AGRONOMIC TERMINOLOGY IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕК, 3 (16). pp. 248-252. ISSN УДК 37 <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2080>.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

**MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.